

Suvonova Ruxsora
Urganch davlat universiteti talabasi

VARVARIZMLARNING LINGVOEKOLOGIYASIGA TA’SIRI

Annotatsiya: Maqolada lingvistik ekologiyaning intralingual aspekti doirasida ko‘rib chiqilishini taqozo etuvchi birlik haqida to‘xtalib o‘tildi. Til ekologiyasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi birliklarning ayrimlari sharhi berildi.

Kalit so‘zlar: Til eroziyasi, muqobilsiz leksika, lakunalar, varvarizmlar, shtamp va klishealar.

“Har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e‘tiborni mustaqillikka bo‘lgan e‘tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni, ona-Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev

Nutq sofligi deyilganda, avvalo, adabiy til normalarining maqsadga muvofiq qo‘llanilishi va tildagi nutq elementlaridan mohirona qo‘llay olish darajalari bilan o‘lchanuvchi me‘yorni tushunamiz. Lingvoekologiyasining aspektlarini o‘rganar ekanmiz, kishi nutqini buzuvchi vositalar sifatida nutq madaniyati, stilistika, ritorika bilan bog‘liq va nutqning to‘g‘riligi, aniqligi, mantiqiyliigi hamda uning kommunikativlari orasidagi buzilishlarni intralingual aspekt doirasida o‘rganilishini tadqiqotlar natijasida ko‘rib chiqdik. Til lingvoekologiyasi intralingual jihatida yana shu narsa ahamiyatli, unda tilning ichki imkoniyatlari doirasidan ish ko‘riladi. Tilning ichki imkoniyatlari shu darajada keng, ijobiylik hamda salbiylik elementlari nutqda doimo sezilib turadi. Til ekologiyasini buzadigan leksik birliklar ko‘pchilikni tashkil qiladi, ammo ularning barchasi til ichki tabiatiga xos deb qaralmaydi. Varvarizmlar, vulgar so‘zlar, argo va jargo, yoki shunga o‘xshash leksik birliklar til ichki tabiatiga xos xususiyat emas. Ular tilning ekologiyasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi birliklar sanaladi va nutqimizga xos bo‘lmagan bu kabi leksikalar lingvoekologik jihatdan ko‘rib chiqilishni taqozo etadi.

Til ekologiyasiga jiddiy ta‘sir etuvchi, til eroziyasini yuzaga keltiruvchi so‘zlar (jargon, argon, vulgar, varvar, sleng, kantselyarizm, agnonim, parazit so‘zlar va h.), asosan, so‘zlashuv nutqiga xos bo‘lib so‘zlovchining o‘z nutqini nazorat qilmasligi, til elementlaridan foydalanishga e‘tiborsizligi tufayli paydo bo‘ladi, bu esa til va nutq sofligiga putur yetkazuvchi, til madaniyatiga yot bo‘lgan lug‘aviy birliklarning shakllanishiga olib keladi.¹ Xususan, bu kabi birliklar o‘z tilimizdagi mavjud muqobillari bilan almashtirilmas ekan, tilning eroziyasi tezlashuviga sabab bo‘luvchi hamda lingvoekologiyasining buzilishiga olib keluvchi omillarning ko‘payishi rivojlanib boraveradi. Shunday ekan, avvalo, eroziya va lingvoekologiya munosabatlariga to‘xtalsak.

Eroziya (lot. *erosion* – “yemirilish”, “nurash”) – yer qobig‘ini tashkil etadigan qoyalarning oqar suv, shamol va boshqa tashqi ta‘sirlardan yemirilib, joyidan qo‘porilishi yoki bir yerdan boshqa bir yerga tashilishi hodisasidir.² *Sahrodagi quduqlar atrofida o‘simliklar payhon qilinganligi sababli, u joylarda shamol eroziyasi juda kuchli bo‘ladi* (P.G‘ulomov, Zarafshon ertaklarida). Eroziya umuman olganda yemirilish bo‘lib, ular tashqi ta‘sirlar natijasida vujudga keladigan hodisadir. Tildagi eroziya ham xuddi shunga o‘xshash hodisa, tilga tashqi ta‘sirlar natijasida kirib keladi. Lingvoekologiyaning intralingual aspekt doirasida tildagi ichki hodisalar asosida ish ko‘rilishini

¹ Qo‘ldoshev N.A Ekolingvistika: o‘zbek tilida til va nutq sofligining lingvokulturologik tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) ...diss. avtoref. – Farg‘ona. 2021. – 26 b.

² <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Eroziya>

aytgan edik. Xo‘sh, unda til eroziyasi bilan bog‘liq masalalar nima sababdan bu aspekt doirasida o‘rganilishni taqozo etadi? Shunisi ahamiyatliki, til eroziyasi bilan bog‘liq masalalarning barchasi tilning ichki ta‘sir doirasiga tegishli. Tashqi manbalar orqali kirib kelgan leksik birliklar ham baribir til ichida qo‘llaniladi. Shunday ekan, til eroziyasi bilan bog‘liq masalalarni ekolingvistikaning intralingual aspekt doirasida o‘rganish xato bo‘lmaydi.

Til eroziyasini yuzaga keltiruvchi so‘zlar yoki til ekologiyasiga putur yetkazuvchi leksik birliklar sifatida dialektizmlar, varvarizmlar, jargon, argo, vulgarizmlar, “parazit” so‘zlar, kantselyarizm, agnonim, sleng hamda shtamp va klishe-larning kiritib o‘tilganligini N. Qo‘ldoshev³ tadqiqotida ham ko‘rishimiz mumkin. Nutqning sofligi masalasi deyilganda, tilning adabiy til normalariga amal qiluvchi va har qanday g‘ayriadabiy til elementlarida holi bo‘lgan nutq anglashiladi. Muqobilsiz leksika hamda lakunalar hodisasidagi ayrim lingvoekologik muammolar ham nutqning sofligiga salbiy ta‘sir o‘tkazadi. “...Masalan, ingliz tilida “yurist, advokat” ma‘nosini anglatgan *lawyer* so‘zidan boshqa advokatlik kasbining turli-tumanligini ifodalaydigan *attorney* “vakil”, *barrister* “oliy sudlarda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan advokat”, *solicitor* “mijozlarga va tashkilotlarga maslahat beruvchi; quyi sudlarda ishtirok etish huquqiga ega”, *counsel* “yuristkonsult”, *counsellor* “maslahatchi”, *advocate* “oliy darajadagi advokat”. O‘zbek va rus tillarida qayd qilingan ifodalarga faqat bir *advokat* so‘ziga muqobil bo‘ladi.”⁴ Bu muqobil variantlarning boshqa ayrim leksik birliklarda ham yo‘qligi, nutqda takrorlarning ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Nutqning sofligini saqlash uchun shtamp va klishe-lardan – nutqda sun‘iy takrorlangan so‘zlardan ham kamroq foydalanish talab etiladi. Dostonlar tilda ko‘plab uchratishimiz mumkin bo‘lgan klishe-lardan biri sifatida “*dam shu damdir, o‘zga damni dam dema*” birligini keltirishimiz mumkin.

Lingvokologiyaga putur yetkazuvchi birliklardan yana biri bu – varvarizmlar. Varvarizm – boshqa tillardan olingan, o‘zlashtirayotgan til tarkibiga to‘la singib ketmagan yoki o‘rinsiz qo‘llanadigan chet so‘z va iboralar. “Varvarizmlar yunoncha *varvarismos* so‘zidan olingan bo‘lib, “kelgindi” degan ma‘noni bildiradi. Varvarizmlar tilga o‘zlashmagan, uning me‘yorlariga xos bo‘lmagan, o‘zga til hodisasi sifatida qo‘llanadigan so‘z va iboralardir”⁵ Varvar birliklar tilimizga boshqa tillarda ko‘p ishlatiladigan so‘zlarni qo‘llash natijasida nutqimizga o‘rnashib qolgan bo‘lishi mumkin. Bu, asosan, til o‘rganish jarayonida o‘rganuvchilarning nutqida ko‘plab kuzatiladi. Odat tusiga aylanib ulgurgan yoki o‘zidan mag‘rurlanish uchun ayrim yoshlar nutqida bu kabi birliklarni qo‘llash tilimiz ekologiyasiga katta ta‘sir o‘tkazadi. “*okey*”, “*karochi*”, “*yes*”, “*O my God*”, “*vaapshe*” yoki “*davay*” kabi chet so‘zlarning yoshlar nutqida juda ko‘p ishlatilishiga guvoh bo‘lyapmiz. Bu kabi holatlar nafaqat o‘zbek tilini, balki boshqa tillarning ham ekologiyasiga salbiy ta‘sir o‘tkazadi. Quyida bu kabi so‘zlarning ayrimlarini tahlil qilsak.

“*Okey*” – ingliz tilidagi “*ok*” degan so‘zdan kelib chiqqan, “yaxshi” degan ma‘noda ishlatiladi. “*Vaapshe*” rus tilidagi “*ваопше*” so‘zidan kelib chiqqan, “umuman” degan ma‘noda ishlatiladi; “*karochi*” – rus tilidagi “*кароче*” so‘zidan kelib chiqqan, “qisqasi” degan ma‘noda qo‘llaniladi; “*davay, davay*” – rus tilidagi “*давай*” so‘zidan kelib chiqqan, “tez-tez bo‘l, bo‘l” degan ma‘noda”⁶ qo‘llaniladi. “*Yes*” ingliz tildan kirib kelgan bo‘lib, “ha” degan ma‘noda, “*O my God*” birikmasini esa “Yo Xudoyim” ma‘nosida yoshlar nutqida takror-takror quloqqa chalinuvchi birliklar sifatida uchratamiz.

³ Qo‘ldoshev N.A Ekolingvistika: o‘zbek tilida til va nutq sofligining lingvokulturologik tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) ...diss. avtoref. – Farg‘ona. 2021

⁴ Usmonova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik. Darslik. – Toshkent: “Bookmany print”, 2022. – .../...31b.

⁵ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildlik. 1-jild. – Toshkent, 2006. – B.441.

⁶ Qo‘ldoshev N.A Ekolingvistika: o‘zbek tilida til va nutq sofligining lingvokulturologik tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) ...diss. avtoref. – Farg‘ona. 2021. – .../...23b.

Nutqimizda qo‘llanuvchi har qaysi birlikdan ehtiyotkorona foydalanish talab etiladi. O‘zbek tilning nufuzini oshirish, qolaversa, boshqa tillarga hurmatni saqlash masalasi bugungi kunga aloqador dolzarb mavzulardan biridir. Negaki, tilga ehtirom va e‘tibor ko‘rsatish har qachon ta‘kidlab o‘tilgan mavzulardandir. Xususan, tilshunos olim N. Mahmudov “Til benihoya muqaddas va mo‘tabar ne‘mat, u odam degan mavjudotga shakllantirilgan, qavmlar o‘laroq birlashtigan, taraqqiyot bosqichlariga olib chiqqan, ruhiy takomilga boshlagan, tafakkur gulshanining darvozalarini ochgan bemisli bir robitadir. Shuning uchun ham tilga nopisandlik insoniyatning o‘zligiga nopisandlik demakdir. Tilga ehtirom va e‘tibor esa bu dunyoda inson bolasi muhtaramligining e‘tirofidir”,⁷ – deya o‘zining ahamiyatga molik fikrlarini bayon etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Eroziya>
2. Mahmudov N. Til. – Toshkent: “Yozuvchi”, 1998.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildlik. 1-jild. – Toshkent, 2006.
4. Qo‘ldoshev N.A Ekolingvistika: o‘zbek tilida til va nutq sofligining lingvokulturologik tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) ...diss. avtoref. – Farg‘ona. 2021.
5. Usmonova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik. Darslik. – Toshkent: “Bookmany print”, 2022.

⁷ Mahmudov N. Til. – Toshkent: “Yozuvchi”, 1998. – B. 3.